



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 202 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	



O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning asosiy usullari va pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantiruvchi zamonaviy ta'lim metodlari – muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, guruhli ish shakllari va individual yondashuvning ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, boshlang'ich ta'lim, tanqidiy fikrlash, pedagogik metodlar, individual yondashuv.

Abstract: The article analyzes the main methods and pedagogical approaches for developing independent thinking skills in primary school students. The author shows the importance of modern educational methods that form critical and creative thinking – problem-based learning, project activities, group work forms, and an individual approach.

Key words: independent thinking, primary education, critical thinking, pedagogical methods, individual approach.

Аннотация: В статье анализируются основные методы и педагогические подходы к формированию навыков самостоятельного мышления у учащихся начальной школы. Автор показывает значимость современных образовательных методов, формирующих критическое и творческое мышление – проблемное обучение, проектная деятельность, групповые формы работы и индивидуальный подход.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, начальное образование, критическое мышление, педагогические методы, индивидуальный подход.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi – shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotga faol kirishuviga tayyorlashdan iborat. Bu jarayonda boshlang'ich ta'limning o'rni alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu bosqichda bolaning asosiy bilim va ko'nikmalari shakllanadi hamda kelajakdagi intellektual rivojlanishining poydevori qo'yiladi.

Mustaqil fikrlash qobiliyati – bu shaxsning o'z qarashlarini shakllantirish, muammolarni hal qilish va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu qobiliyatni rivojlantirish zarurati bugungi kunda ayniqsa dolzarb masalaga aylangan. Chunki axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va tanqidiy yondashuvga ega bo'lgan shaxslar talab qilinadi. Shuning uchun ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilar nafaqat tayyor bilimlarni egallasinlar, balki o'zlari yangi bilimlarni izlab topish, tahlil qilish va amalda qo'llash qobiliyatiga ega bo'lsinlar. Ushbu maqsadga erishish uchun an'anaviy o'qitish metodlarini qayta ko'rib chiqish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi ko'plab o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari markazida turgan. Pedagogika fanining klassiklari J. Dyui, L. S. Vigotskiy, J. Piaje kabi olimlar bolalarning intellektual rivojlanishi va mustaqil fikrlash jarayonlari haqida fundamental nazariyalar yaratganlar. L. S. Vigotskiy o'zining "Yaqin rivojlanish zonasini" konsepsiyasida bolalarning mustaqil faoliyat qobiliyatini shakllantirishning ahamiyatini ta'kidlagan. J. Dyui esa "Learning by doing" (amaliyot orqali o'rganish) tamoyilini ilgari surib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi ta'lim metodlarini rivojlantirgan.

Zamonaviy xalqaro tadqiqotlarda mustaqil va tanqidiy fikrlash masalalari keng o'rganilmoqda. "Critical thinking is necessary for students because it empowers them to solve problems, especially during the learning stage and in real-life situations" deb ta'kidlanadi Frontiers jurnalida chop etilgan maqolada (2023). Ushbu

tadqiqot loyiha asosidagi ta'lim modelining o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

Thinking Skills and Creativity (Scopus Q1) jurnalida chop etilgan tadqiqotlarda "Critical thinking is acknowledged as a 21st century skill that allows humans to make considered and informed decisions based on the information available to them" deb qayd etilgan. Bu tadqiqot 2015–2021 yillar oralig'ida boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlashni o'rgatish usullari bo'yicha 25 ta empirik tadqiqotni tahlil qilgan va eng samarali vositalar sifatida sinf muhokamasi, savol-berish texnikasi va hikoya asosidagi yondashuvlarni aniqlagan.

Irish Educational Studies jurnalida (2023) chop etilgan maqolada "how teachers can facilitate, monitor, and support critical thinking in primary science remains a challenge" deb ta'kidlanib, boshlang'ich maktabda fan fanlarida tanqidiy fikrlashni qo'llab-quvvatlash muammolari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot semiotik yondashuv orqali o'quvchilarning ilmiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning yangi usullarini taklif etgan.

O'zbek pedagogika fanida N. Muslimov, H. Hasanov, G'. G'. Sayfullayeva, O. Jo'rayev kabi olimlar boshlang'ich ta'limda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning milliy o'ziga xosliklarini o'rganganlar. N. Muslimovning tadqiqotlarida o'zbek bolalarining psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda mustaqil fikrlash metodikasi ishlab chiqilgan. H. Hasanov esa o'qitishning faollashtiruvchi metodlari orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llarini ko'rsatgan. Zamonaviy xorijiy tadqiqotchilardan R. Paul, L. Elder tanqidiy fikrlash nazariyasini rivojlantirgan va uni amaliyotga tatbiq etish metodlarini ishlab chiqqanlar. E. Bono "Olti bo'rak usuli" orqali o'quvchilarning turli nuqtai nazardan fikrlash qobiliyatini oshirish usullarini taklif etgan. H. Gardner ko'p intellekt nazariyasi asosida har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyatini ta'kidlagan.

Indonesian Journal of Education (2024) jurnalida chop etilgan so'nggi tadqiqotlar "Implementation of the Problem Based Learning to Improve Higher Order Thinking Skills (HOTS) of Elementary School Students" mavzusida muammoli ta'lim modelining boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolini o'rganib chiqqan. Bu tadqiqotlar zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mustaqil fikrlash rivojlanishiga ijobiy ta'sirini tasdiqlagan. Hozirgi kunda O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim sohasida ishlayotgan tadqiqotchilar – M. Yo'ldashev, N. Azizxo'jayeva, Sh. Sharipov kabi olimlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mustaqil fikrlashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga e'tibor qaratmoqdalar. Ularning ishlarida muammoli ta'lim, loyiha metodlari va interaktiv usullar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari chuqur tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mustaqil fikrlash qobiliyati – shaxsning o'z qarashlarini shakllantirish, muammolarni tahlil qilish, tanqidiy baholash va ijodiy yechimlar topish ko'nikmasidir. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bu qobiliyatni rivojlantirish ayniqsa muhim, chunki 6–10 yosh davridagi bolalarda asosiy kognitiv jarayonlar shakllanadi va kelajakdagi intellektual rivojlanishning poydevori qo'yiladi.

L. S. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida bolaning hozirgi imkoniyatlari va kattalar yordami bilan erisha oladigan darajasi o'rtasidagi masofani ko'rsatdi: "Bola bugun kattalar yordami bilan bajara oladigan ishni ertaga mustaqil ravishda bajara oladi."¹ Bu nazariya o'qituvchining bosqichma-bosqich yordam berib, o'quvchini mustaqillikka yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi.

J. Piaje kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolalar faol ravishda bilimlarni qurish jarayonida ishtirok etadilar va atrofda dunyoni o'rganish, tajriba o'tkazish orqali o'z bilimlarini shakllantiradilar.

H. Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlari va o'rganish uslubi borligini ta'kidlaydi. Shuning uchun mustaqil fikrlashni rivojlantirish jarayonida vizual, audial, kinestetik va boshqa usullarni qo'llash orqali bolalarning barcha qobiliyatlarini faollashtirish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyati bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega: bu yoshdagi bolalarda konkret-obrazli fikrlash ustunlik qiladi, diqqat jamlash muddati cheklangan va o'yin faoliyati muhim o'rin tutadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishning eng samarali metodlaridan biri – muammoli ta'lim usulidir. Bu usulda o'quvchilar oldiga muammo qo'yiladi va ular uni hal qilish yo'llarini mustaqil ravishda izlaydilar. Masalan, matematika darsida "Maktabimizning hovlisiga 100 ta ko'chat ekildi. Agar har qatorda 10 ta ko'chat bo'lsa, necha qator hosil bo'ladi?" kabi savol orqali o'quvchilarni fikrlashga undash mumkin. "Beyin hujumi" usuli o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, bunda barcha g'oyalar qabul qilinadi va tanqid qilinmaydi. Savol-javob metodikasini Bloom taksonomiyasi asosida takomillashtirish orqali turli darajadagi ochiq savollar qo'yish mumkin: "Nima uchun bu hodisa sodir bo'ldi?", "Agar vaziyat boshqacha bo'lganida nima bo'lar edi?" kabi savollar o'quvchilarni chuqur fikrlashga undaydi.

1 Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.



1-rasm: **Mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish metodlari**

Guruh ishi va hamkorlik o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kichik guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini ifodalash, boshqalarning qarashlarini tinglash va umumiy yechim topish ko'nikmalarini egallaydilar. Fikr almashinuvi jarayonida bolalar nafaqat bilim oladi, balki fikrlash madaniyatini ham o'rganadilar.² "Jigso" usuli guruh a'zolarining har biri ma'lum mavzu bo'yicha mutaxassis bo'lib, keyin o'z bilimlarini boshqalar bilan baham ko'rishiga asoslanadi. Bu orqali o'quvchilar mas'uliyat his qilish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Rolni o'ynash usuli orqali o'quvchilar turli vaziyatlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Loyiha faoliyati o'quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish, ma'lumot to'plash, tahlil qilish va natija chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kichik loyihalardan boshlash kerak: "Mening oilam tarixi", "Mahallam haqida", "Sevimli kitobim" kabi mavzularda loyihalar tayyorlash mumkin. Loyiha jarayonida o'quvchilar mavzuni tanlash, maqsad qo'yish, reja tuzish, ma'lumot to'plash, tahlil qilish va taqdimot tayyorlash bosqichlarini o'tadilar, bu esa ularning turli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari mustaqil fikrlashni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Interaktiv doska, kompyuter o'yinlari, ta'limiy dasturlar va internet resurslaridan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini

2 Hasanov H.H. Boshlang'ich ta'limda faollashtiruvchi metodlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2020. – 168 b.

oshiradi va ularni faol fikrlashga undaydi. "Elektron karta" usuli orqali o'quvchilar mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni tartibga solish va bog'lashni o'rganadilar, "Venn diagrammasi" orqali esa taqqoslash va farqlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Individual yondashuv har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olishni talab qiladi. Ba'zi o'quvchilar vizual ma'lumotlarni yaxshi qabul qiladi, boshqalari esa audial yoki kinestetik usullarni afzal ko'radi. Differensiallashtirilgan topshiriqlar berish orqali har bir o'quvchining qobiliyatiga mos keladigan vazifalar taklif qilish, iqtidorli o'quvchilarga murakkabroq vazifalar, qiyinchilikka duch kelayotgan o'quvchilarga esa ko'proq yordam va soddada topshiriqlar berish zarur. Baholash tizimini takomillashtirish ham muhim omil hisoblanadi. An'anaviy baholash tizimi asosan yakuniy natijaga e'tibor beradi, ammo mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun jarayon baholash muhimroqdir. O'quvchining fikrlash jarayoni, uslubi, ijodiy yondashuvi va rivojlanish dinamikasini kuzatib borish zarur. "Portfolio" usuli orqali o'quvchilarning rivojlanish jarayonini kuzatib borish, o'z-o'zini va sherikni baholash usullari orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

O'qituvchining roli mustaqil fikrlashni rivojlantirishda juda muhim. O'qituvchi bilim beruvchi sifatida emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, maslahatchi va hamkor sifatida harakat qilishi kerak. "O'qituvchi – bu o'quvchining potensial qobiliyatlarini ochuvchi kalit"³ degan fikr bejiz emas. O'qituvchi samarali savollar qo'ya bilish, o'quvchilarni tinglash, ularning fikrlarini qadrlash, xatolardan o'rganishga undash, ijodiy muhit yaratish va har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun maxsus treninglar, seminarlar va tajriba almashish sessiyalarini tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar bilan tanishish zarur.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhit yaratish ham katta ahamiyatga ega. Sinf muhiti o'quvchilarning erkin fikr bildirishi, savol berishdan qo'rqqanligi va xatolardan o'rganishga tayyor bo'lishi uchun qulay bo'lishi kerak. "Xatolar – bu o'rganishning tabiiy qismi" tamoyilini qabul qilgan muhitda o'quvchilar ko'proq eksperiment qilishga va yangi g'oyalarni sinab ko'rishga tayyor bo'ladilar. Ota-onalar va oila a'zolarining roli ham e'tiborga olinishi kerak. Uyda mustaqil fikrlashni qo'llab-quvvatlash, bolalarning savollariga sabr bilan javob berish va ularni izlanishga undash muhim. Maktab va oila o'rtasidagi hamkorlik mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlangan o'quvchilar nafaqat o'quv faoliyatida, balki kundalik hayotda ham ko'proq muvaffaqiyat qozonadi. Ular muammolarni hal qilishda ijodkor, qaror qabul qilishda mustaqil va yangi vaziyatlarga moslashishda moslashuvchan bo'ladilar. Bu xususiyatlar zamonaviy jamiyatda yashash va muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritish uchun juda muhim hisoblanadi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, bu masala kompleks yondashuvni talab qiladi. Samarali rivojlantirish uchun muammoli ta'lim, beyin hujumi, guruh ishi, loyiha faoliyati va zamonaviy texnologiyalardan tizimli foydalanish zarur. O'qituvchi yo'l ko'rsatuvchi va fasilitator rolini bajarishi, formativ baholash usullarini qo'llashi va individual yondashuvni ta'minlashi kerak.

Mustaqil fikrlash qobiliyati bolaning intellektual rivojlanishi va kelajakdagi muvaffaqiyatining asosiy omilidir. Bu masalani hal qilish uchun o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va ota-onalar bilan hamkorlik zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2021. – 176 b.
2. Hasanov H.H. Boshlang'ich ta'limda faollashtiruvchi metodlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2020. – 168 b.
3. Muslimov N.A. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019. – 208 b.
4. Sharipov Sh.S. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: "Turon-Iqbol", 2023. – 192 b.
5. Yo'ldashev M.Q. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi. – Toshkent: "Sharq", 2022. – 224 b.
6. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – Boston: Allyn and Bacon, 1984. – 207 p.
7. Gardner H. Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. – New York: Basic Books, 2006. – 304 p.
8. Paul R. Critical Thinking: What Every Person Needs to Survive in a Rapidly Changing World. – Rohnert Park: Foundation for Critical Thinking, 2018. – 546 p.
9. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – Toshkent, 2017.

3 Muslimov N.A. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019. – 208 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.